



**INSON MEHNATI VA SUN'IY INTELLEKT: RAQOBAT YOKI HAMKORLIK.**

**Munisaxon Raximova Komiljon qizi**

*Millat Umidi universiteti English language teaching fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** *So'nggi yillarda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari jadal rivojlanib, insoniyat hayotining turli jabhalariga chuqur kirib bormoqda. U nafaqat ma'lumotlarni qayta ishlash, balki tibbiyot, transport, ta'lim, biznes va hatto ijodiy sohalarida ham faol qo'llanilmoqda. Bu esa tabiiy ravishda savol tug'diradi: Sun'iy intellekt yangi imkoniyatlar yaratish orqali insonlarning har jabhada yanada yuksalishiga yordam beradimi, yoki aksincha ularning ishini tortib oladimi?*

*Shu bilan birga, SI bilan hamkorlik qilish orqali inson salohiyatini oshirish, unumdorlikni kuchaytirish va yangi imkoniyatlar yaratish masalalari yoritilgan. Ishda xalqaro tajriba, statistik ma'lumotlar va dolzarb ilmiy manbalarga tayanilgan holda, inson va sun'iy intellekt o'rtasida muvozanatli hamkorlikni yo'lga qo'yish zarurligi asoslab berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Sun'iy intellekt, ish bozori, avtomatlashtirish, yangi kasblar, texnologik, transformatsiya, sun'iy intellekt, inson mehnati, mehnat bozori, avtomatlashtirish, texnologik taraqqiyot, raqobat, hamkorlik, kasblarning transformatsiyasi, aqlli tizimlar, ish o'rinlari kelajagi.*

**KIRISH.**

XXI asr – raqamli texnologiyalar asri bo'lib, unda sun'iy intellekt (SI) insoniyat hayotining deyarli barcha sohalariga jadal sur'atlarda kirib bormoqda. Bugungi kunda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, tibbiyot, ta'lim, transport kabi ko'plab yo'nalishlarda SI tizimlari inson mehnatini to'ldirish, yengillashtirish, hattoki almashtirish imkoniyatiga ega bo'lib bormoqda. Shu sababli sun'iy intellekt va inson o'rtasidagi munosabat masalasi tobora dolzarb tus olmoqda.

Ayniqsa, mehnat bozori kontekstida SI rivojining ijobiy va salbiy oqibatlari haqida turlicha qarashlar mavjud. Bir tomondan, texnologik yutuqlar natijasida ish unumdorligi oshadi, yangi kasblar yuzaga keladi, inson aqliy salohiyatiga tayanilgan faoliyatga e'tibor ortadi. Boshqa tomondan esa, SI tomonidan avtomatlashtirilgan jarayonlar tufayli an'anaviy ish o'rinlarining qisqarishi xavfi ham mavjud.

Ushbu ishda inson mehnati va sun'iy intellekt o'rtasidagi munosabatlar raqobat va hamkorlik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Shuningdek, SI rivojlanishining mehnat bozori tarkibiga ko'rsatadigan ta'siri, mavjud xavf-xatarlar hamda istiqboldagi hamkorlik imkoniyatlari ilmiy manbalar va amaliy misollar asosida yoritiladi.

So'nggi davrda, ya'ni bizning asrimizga kelib, sun'iy intellekt ilm-fan va texnologiyalar taraqqiyotining eng muhim yo'nalishlardan biriga aylandi. Avallari, faqat nazariy muvaffaqiyatlarga erishdi. Ushbu maqolada Sun'iy intellektning mehnat bozoriga





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



ko'rsatadigan ta'siri, an'anaviy kasblarning yo'qolish xavfi, yangi kasblarning shakllanishi va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini yoritiladi.

### ASOSIY QISM.

Sun'iy intellekt va mehnat bozori:

Sun'iy intellektning mehnat bozoriga ta'siri haqida turli qarashlar mavjud. Ba'zi tadqiqotchilar uni ish o'rinlariga xavf sifatida ko'rsalar, boshqalar uni yangi imkoniyatlar manbai deb biladilar. Ushbu bo'limda sun'iy intellektning bandlikka ta'siri turli ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Sun'iy intellekt va avtomatlashtirishning mehnat bozoriga ta'siri bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Ulardan eng mashhuri Oksford universiteti olimlari Carl Benedikt Frey va Michael A. Osborne tomonidan amalga oshirilgan *The Future of Employment: How Susceptible Are Jobs to Computerisation?* (2013) nomli ishdir. Tadqiqot natijasida, AQShdagi 702 ta kasb ko'rib chiqilib, ulardan dyearli yarimi, qariyb 47% avtomatlashtirish xavfi ostida ekani aniqlangan. Xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish sohasidagi ba'zi oddiy kasblar, masalan, kassa operatorlari yoki tikuvchilar, eng katta xavf guruhiga kiradi. Chunki bunday faoliyatni algoritmlar inson mehnatiga nisbatan tezroq, arzonroq va ancha kam xatolik bilan bajara oladi.

Frey va Osborne shuningdek, xavf ostidagi ish o'rinlari asosan „Past malakali kasblar“ toifasiga kirishini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, yaqin o'n yilliklarda avtomatlashtirish jarayoni eng avvalo xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish va ma'muriy ishlar kabi sohalarda sezilarli qisqarishga olib keladi. Bu esa mehnat bozorida jiddiy tarkibiy o'zgarishlarni keltirib chiqarib, ko'plab ishchilarni qayta tayyorlash yoki yangi ko'nikmalarni egallashga majbur qiladi (Frey & Osborne, 2013).

Ammo, barcha tadqiqotlar sun'iy intellekt faqat ish o'rinlarini qisqartiradi, degan xulosaga kelmaydi. Masalan, World Economic Forum (2020) tomonidan chop etilgan *The Future of Jobs Report*da qayd etilishicha, 2025-yilga kelib avtomatlashtirish natijasida 85 million ish o'rni yo'qolishi, ammo shu bilan birga 97 million yangi ish o'rni yaratilishi prognoz qilinmoqda. Ushbu yangi kasblar, asosan, axborot texnologiyalari, ma'lumotlarni tahlil qilish, sun'iy intellektni boshqarish, shuningdek, ijodkorlik va insonlararo muloqot talab qiladigan sohalarda shakllanishi kutilmoqda. Demak, sun'iy intellekt mehnat bozorini to'liq yo'q qilish emas, balki uni qayta shakllantirish orqali yangi imkoniyatlar yaratadi. Bundan ko'rinib turibdiki, sun'iy intellekt hali ham hissiy intellekt, insoniy muloqot va ijodkorlik kabi mahoratlarni egallay olmaydi. Shu sababli, yoshlarning turli ko'nikmalarni o'zida shakllantirishi va moslashuvchan bo'lishi muhimdir (World Economic Forum 2020).

O'zbekistonda sun'iy intellekt va mehnat bozori. O'zbekiston Respublikasi 2021-yilda „Sun'iy intellekt sohasini rivojlantirish konsepsiyasi“ni qabul qildi. Mamlakatda raqamli texnologiyalarni joriy etish, jumladan SI yechimlarini ishlab chiqish bo'yicha qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu esa kelajakda yangi kasblarning paydo bo'lishi va mehnat bozori strukturasi o'zgarishini anglatadi.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Biroq SI joriy qilinayotganda, ijtimoiy himoya, qayta tayyorlash, raqamli savodxonlikni oshirish kabi masalalar dolzarb bo'lib qolmoqda. Hukumatning vazifasi texnologik taraqqiyot va inson resurslarini muvozanatli rivojlantirishdan iborat.

### XULOSA:

Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish mehnat bozorida bir paytning o'zida ham xavf, ham imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Frey va Osborne (2013) tadqiqotlari ayrim past malakali kasblar yo'qolib ketish xavfi yuqori ekanini ko'rsatgan bo'lsa, World Economic Forum (2020) hisobotida yangi imkoniyatlar ham paydo bo'lishi qayd etilgan. Demak, sun'iy intellekt ish o'rinlarini faqat qisqartiribgina qolmay, balki ularni qayta shakllantiradi. Shunday ekan, yoshlar va mutaxassislar kelajakda raqobatbardosh bo'lishi uchun texnologik ko'nikmalar, ijodkorlik va insoniy muloqot kabi fazilatlarni rivojlantirishi zarur. Mening nazarimda, bu natijalar sun'iy intellektdan qo'rqishni emas, balki undan to'g'ri foydalanish kerakligini ko'rsatadi. Agar jamiyat va kelayotgan avlod moslashuvchanlik va texnologiyalarni qabul qilishga ochiq bo'lsa sun'iy intellektning mehnat bozorida katta imkoniyatlar ochadi. Va hozirgi, raqobatdosh davrda yumshoq ko'nikmalarni rivojlantirish muhim kalit hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Frey, C. B., & Osborne, M. A. (2013). The future of employment: How susceptible are jobs to computerisation? Oxford Martin School, University of Oxford. Retrieved from <https://www.oxfordmartin.ox.ac.uk/downloads/academic/future-of-employment.pdf>
2. World Economic Forum. (2020). The future of jobs report 2020. Geneva: World Economic Forum. Retrieved from <https://www.weforum.org/reports/the-future-of-jobs-report-2020>
3. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. New York: W. W. Norton & Company.  
– Ushbu kitob sun'iy intellekt va avtomatlashtirishning inson mehnatiga ta'siri haqida batafsil tahlil beradi.
4. Russell, S., & Norvig, P. (2020). Artificial Intelligence: A Modern Approach (4th ed.). Pearson.  
– Sun'iy intellektning texnik asoslari va uning turli sohalardagi qo'llanilishi haqida fundamental asar.
5. Tegmark, M. (2017). Life 3.0: Being Human in the Age of Artificial Intelligence. New York: Alfred A. Knopf.  
– AI rivojlanishi va insoniyat kelajagiga ta'siri haqida falsafiy va ilmiy mulohazalar.
6. Chui, M., Manyika, J., & Miremadi, M. (2016). Where machines could replace humans—and where they can't (yet). McKinsey Quarterly.  
– Sun'iy intellektning qaysi sohalarda inson mehnatini to'liq yoki qisman almashtira olishini tadqiq etgan maqola.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



7. ILO (International Labour Organization). (2020). Artificial Intelligence and the Future of Work. Geneva: ILO Publishing.

– ILO tomonidan chop etilgan bu hujjatda sun'iy intellektning mehnat bozori va bandlikka ta'siri tahlil qilingan.

8. Bostrom, N. (2014). Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies. Oxford University Press.

– Sun'iy intellektning uzoq muddatli evolyutsiyasi va xavflari haqida.

9. Vincent, J. (2019). AI is transforming the workplace. But what jobs will be lost—and which won't? The Verge.

– Ommabop maqola bo'lib, AI va inson mehnati o'rtasidagi o'zgaruvchan dinamikani oson tilda tushuntiradi.

10. Kaplan, J. (2015). Humans Need Not Apply: A Guide to Wealth and Work in the Age of Artificial Intelligence. Yale University Press.

– Mehnat bozori, ish o'rinlari va sun'iy intellekt raqobati haqida tahliliy fikrlar.

11. Zammit, A. (2021). AI and Human Collaboration: New Frontiers in Workforce. Journal of Future Studies, 25(2), 112–130.

– Inson va AI o'rtasidagi hamkorlik imkoniyatlari haqida ilmiy maqola.

12. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. (2023). Sun'iy intellekt bo'yicha milliy strategiya. Toshkent.